

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/2 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазиранлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*  
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....217-223

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*  
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*  
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
TATBIQ ETISH METODIKASI .....229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*  
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING  
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK  
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*  
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*  
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM  
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR  
TUSHUNCHASI .....259-265

*Valieva Xolida*  
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI .....266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*  
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....278-285

*Mamaraimova Zebo Shafotovna*  
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK  
TAMOYILLARI .....286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*  
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....291-295

*Abdurasulova Shoirra Kushakovna*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI  
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*  
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI  
SIFATIDA .....306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

13.00.00– Педагогика фанлари

**Abdurasulova Shaira Kushakovna**  
Guliston davlat universiteti  
“Boshlang‘ich ta‘lim uslubi”  
kafedrasida o‘qituvchisi  
[shoiraabdurasulova1972@gmail.com](mailto:shoiraabdurasulova1972@gmail.com)

### **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**Anontatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish mohiyati, usullari va samaradorligi, kasbiy kompetentlilik tushunchasi mazmuni, integrativ ta‘lim nima uchun zarur va afzal jihatlari, integrativ usullardan oliy ta‘lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari, Respublikamizda integratsiyalashgan ta‘limga berilayotgan e‘tibor va joriy etish holatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, o‘quvchi, integratsiya, integrativ yondashuv, kasbiy kompetentlilik, pedagogik mahorat, ta‘lim, tarbiya, jamiyat, dars, rivojlantirish, metodika, vosita, bilim, ko‘nikma, malaka.

---

**Abdurasulova Shaira Kushakovna**  
Gulistan State University  
Teacher of the "Primary Education  
Methodology" department

### **DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH**

**Annotation.** In this article, the essence, methods and effectiveness of developing the professional competence of future elementary school teachers based on an integrative approach, the content of the concept of professional competence, why integrative education is necessary and its advantages, the use of integrative methods in the process of higher education opportunities, attention paid to integrated education in our Republic and cases of implementation.

**Key words:** teacher, student, integration, integrative approach, professional competence, pedagogical skill, education, training, society, lesson, development, methodology, tool, knowledge, skill, qualification.

---

**Абдурасулова Шайра Кушаконна**  
Гулистанский государственный университет  
Преподаватель кафедры «Методика начального образования»

### **РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

**Аннотация.** В данной статье раскрыты сущность, методы и эффективность развития профессиональной компетентности будущих учителей начальной школы на основе интегративного подхода, содержание понятия профессиональной компетентности, почему необходимо интегративное образование и его преимущества, использование интегративного подхода. методы в процессе получения

высшего образования, внимание, уделяемое интегрированному образованию в нашей республике и примеры реализации.

**Ключевые слова:** учитель, ученик, интеграция, интегративный подход, профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, образование, обучение, общество, урок, освоение, методика, инструмент, знание, умение, квалификация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N46>

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni uyg'unlashtirishgan holda o'rganish atrof-muhitga ijodiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish muammolarini hal etishga imkoniyat yaratdi. Demak, ta'lim-tarbiyada ham amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat ko'rsatishi lozim. Bu o'rinda noa'naviy o'qitish shakli-integratsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo'llanilish texnikasiga ko'ra, amalga oshirilgan texnologiyasining istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi. Chunki, integratsiya yetarlicha namoyon bo'lgan, turli harakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatli holatga o'tishda asosiy omil bo'lib yuzaga chiqqan oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan'naviy ta'lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa harakterdagi katta xajmli o'quv materialining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi.

Hozir kunda Respublikamizda ro'y berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – ma'naviy, madaniy – ma'rifiy o'zgarishlar va ularga mos uzluksiz ta'lim – tarbiya tizimida ham tubdan yangilanishlar qilinmoqda. Ayniqsa, zamon bilan hamnafas kadrlar tayyorlash har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Bunday zamonaviy kadrlarni tayyorlashni pedagogik innovatsiyalarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda oliy ta'limning asosiy maqsadi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, kasbga o'rgatish, ularning aqliy va ma'naviy kamol toptirishdan iboratdir. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun[1] va talablaridan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni va vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o'zi talab qilmoqda. Bu omil ta'lim jarayonini tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo'lishini talab etadi. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo'lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta'limni tashkil etishda o'qituvchi mahoratining integrativ shakllari keng ko'lamda joriy etilishi kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning ma'lum qismi integrativ yondashuvlarning tarkibi sifatida chiqqan bo'lsa, yana bir qismi dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo'ladi. Innovatsion va integratsion pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo'nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mahalliy va xorijiy pedagogika fanida integratsiya muammolarini organish bo'yicha boy tajriba to'plangan. Turli davrlarda ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish vazifasini Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalozsi, J.J.Russo, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiylar ilgari surdilar. Adabiyotlarni o'rganish, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimiz mobaynida shunga amin bo'ldikki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, keyinroq esa bitiruvchilari, kurslar ayrim fanlarni o'rganganliklari holda ayrim o'rganganlarini hayotda "elementar" bilimlarni qo'llashda qiyinchilik his qiladilar. Ularga olgan bilimlarini amalda kerakli o'rinda qo'llash uchun mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash malakalari etishmaydi. Bu holat sabablaridan biri boshlang'ich ta'limda turli fanlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganilmaganligidan bo'ladi. Bunda integratsiya faoliyatni o'zgartirish yoki bilimlarni bir

fandan ikkinchisiga o'tkazish bo'lmay, balki zamonaviy ilmiy bilimlarni integratsiyalash asosidagi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratishdan iborat degan qonuniyat rad etiladi.

S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninlarning «Pedagogika» [11] kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integrat-siyalashgan ta'lim muammolari aks etmaydi.

L.N.Baxarevaning Rossiya nashri bo'lgan «Nachalnaya shkola» jurnalida chop etilgan «Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash» nomli maqolasida integratsiyaga ko'plab fanlarni umumlashtirish va bog'lash jarayoni deb qarab, yangi, butun, yaxlit bo'limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning yuqori ko'rinishi" deb ta'rif beradi.

Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan.

V.I. Baydenko «kasbiy kompetentlik» tushunchasini quyidagicha tavsiflagan:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo'lish;

- kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- faoliyat mezonini (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;

- ish beruvchi talablariga ko'ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish;

- insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarning integrallashgan birlashuvi. [4]


O'zbek olimlaridan Abdullaeva B.S. [3], G'ulomov A [6], Ne'matov O', Ro'zimuhammad B [12], Ziyomuhhammadov B [17], Abdullaeva Sh kabi olimlar o'zlarining pedagogikaga bag'ishlangan darslik hamda maqolalarida integratsiyalashgan ta'lim va talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari xususida o'zlarining qarashlarini keltirib o'tishgan.

**Muhokama. Zamonaviy bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi** – har tomonlama ilg'or bo'lishi, o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo'lishi, bolani sevishi, amaliyotdagi muammoni bilishi va muammoni bartaraf etish yo'llarini izlab topishi kerak.

Zamonaviy bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yilgan talablarni tahlil qilar ekanmiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Mustaqil o'ylay oladigan, tafakkur yuritib to'g'ri, ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar

shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak", - deb ta'kidlagan fikrlarini keltirishni joiz deb topdik [2]

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi metodik tayyorgarlikka ega bo'lishidan oldin o'zida qator kasbiy va shaxsiy pedagogik tayyorgarlikni shakllantira olishi lozim.



**1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy sifatlarining kognitiv uyg'unligi.**

Xorij tajribalarini o'rganib, amaliy jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga zamin yarata olmaymiz, degan xulosaga keldik.

Xalqaro tajribadan ko'rinadiki, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bugungi ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayoniga qator ijobiy va ijodiy sifatlarini olib kirishi va o'ziga nisbatan singdira olishi lozim (2-rasm).



**2-rasm. Xalqaro tajribaga asosan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ega bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar.**

Zamonaviy kreativ mutaxassisning kompetentlik modelida ta'limning yangi xalqaro andozalariga mos talablari va maqsadlari mehnat predmeti va obyekt bilan, muayyan funksiyalarni bajarish bilan, fanlararo integratsiyalashgan talablar esa ta'lim jarayoni natijalari bilan bog'lanadi.

Integratsiya tafakkur o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya - o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasidir.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, mustaqil tarzda ijodiy mulohaza yuritishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar

faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlikning hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligini tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib oliy ta'limda qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularning dunyoning birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmetlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog'liq.

Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: 1. Boshlang'ich integratsiya.

2.Oraliq integratsiya.

3.Yakuniy integratsiya

Pedagogik ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog y.a.samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarni mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir.Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralan-gan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng sodda tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganish asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi, ularni bir-biri bilan taqqoslanishi asosida amalga oshiriladi. Bunda bilimlarning eng oddiy umumlashtirilishi sodir bo'lib, o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimini bilishlarini ta'minlaydi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarni aks ettiradi.

Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda quyidagilar hisobga olinadi:

→ bilim bloklari birlashtirilgan, shuning uchun uni to'g'ri aniqlash muhimdir asosiy maqsad dars;

→ ob'ektlarning mazmunidan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olinadi;

→ o'quv materialini mazmunida ko'plab havolalar o'rnatiladi;

→ integratsiyalangan tarkibning qismlari darsda zarur bo'g'in bo'lib, yakuniy yakunni olishi uchun rejalashtirilgan;

→ o'qitishning usul va vositalarini puxta tanlash hamda o'quvchilarning darsdagi yuklamasini aniqlash talab etiladi. [11]

"Integratsiya" tushunchasi, bevosita XVIII asrlarda G.Spenser tomonidan o'z qo'lyozmalarida qo'llanilgan.

Ta'limda integratsiyaning nazariy, metodologik, pedagogik va psixologik asoslarini predmetlararo boshlanishga chuqur yondashgan holda o'rganish, buyuk klassik pedagoglardan Ya.A.Komenskiy, E.Rosmesler, F.Yunge, Dj.Dyui keyinroq, ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ochishda katta xizmat qilgan

Yu.K.Babanskiy, S.L.Rubinshteyn, Ye.N.Kabanova-Miller, Yu.A.Samarin, Yu.M.Kolyagin, N.S.Svetlovskaya, I.A.Mironenko, M.G.Chepikov, N.K.Chapaev kabi olimlarning bu sohadagi xizmatlari o'z aksini topgan. [14]

Ta'limda integratsiyani amalga oshirishning asosiy muammolaridan biri, bu integrativ darslarning tuzilishini ko'rsatishga qaratilgan dars ishlanmalari, metodik yo'riqnomalarning mavjud emasligidir.

Ta'limda integratsiyani amalga oshirishga doir tegishli uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim pedagogik muammolaridan biridir.

Ta'limdagi integratsiyaning mohiyati nima bilan xarakterlanadi? Integratsiya tushunchasi ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda ikkita ma'noni anglatadi: **birinchidan**, bo'lajak o'qituvchilarida bizni o'rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilinishiga erishish (bunda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi); **ikkinchidan**, fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini yaqinlashtirish (bunda integratsiyaga ta'lim vositasi sifatida qaraladi). Bugungi kunda fanlarni integratsiyalash muammosi pedagogik jamoaga, o'quvchilarga ta'sir etishning yangi pedagogik vazifalarni samarali yechimini faol izlashga qaratilgan yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. [10]

Pedagogik ilmlarning vazifasi-o'qituvchiga turli fandagi alohida elementlarni yagona bir butunlikka birlashtirish asosida integrallab o'rgatishga yordam beradi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo'lmay, balki fanlararo sintez bo'lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir

Integratsiya-differentsiatsiyaning aksi bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq: a) o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish; b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash. Professor B.S.Abdullaeva [3] ham fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratadi: 1) [mazmunli](#); 2) operatsion; 3) metodik; 4) tashkiliy.

U ta'kidlaganidek, ko'nikma, malakalar fikrlash operatsiyalari orqali o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etadi.

A.G'ulomov hamda H.Ne'matovlar ta'kidlashicha, integrativ jarayonlar boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni har tomonlama bilimli qilish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bunda o'quvchilar badiiy uslubni adabiyot fanidan, ilmiy uslubni biologiyadan, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari nazarda tutiladi.[6]

Integratsiyaning mazmun mohiyati Fariddin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: "bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'ziyo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi".[12]

B.Ziyomammedov va Sh.Abdullaevalar o'quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta darsga, bitta mavzuga yoki o'quv predmetining bir qismiga, butun o'quv predmetiga tuzib chiqilishi lozimligini ta'kidlab, uning 5 ta tamoyili borligini ko'rsatadi:

**birinchisi**-muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy [maqsadni shakllantirib olish](#);

**ikkinchisi**-darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsad va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish;

**uchinchisi** - modul ichida test savollarini tuzib chiqish;

**to'rtinchisi** - maqsadlarga [etish usullarini aniqlash](#);

**beshinchisi** - bir butunlik tamoyiliga asoslanib, dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish hisoblanadi.[17]

Zamonaviy ta'lim tendensiyalari orqali jadal rivojlanuvchi va o'zgarib turuvchi jamiyat zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlarini qanoatlantirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab borish zarurligini talab etmoqda. Shu bois integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish, dasturlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan pedagogik tayyorgarlik va mahorat talab etiladi.

Kompetentlik –biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati.

Kompetentlik shaxsning doimo rivojlanib boruvchi sifatlaridan biri bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlarini va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari.

Xorijiy adabiyotlar tahlilida, kompetentlik “chuqur bilimlar egasi”, “murakkab masalalarni yechish qobiliyati”, “o'z paytida dolzarb faoliyatni amalga oshirish qobiliyati” kabi ma'nolarni anglatadi.[16]

Ye.F.Zeer muhim kompetensiyalarni shaxsning turli kasbiy faoliyatga moslashishi va samarali faoliyat ko'rsatish uchun ma'lum ishlarni bajarishda zarur bo'ladigan, ko'nikma va malakalar shaxsiy sifatlar va qobiliyat sifatida ta'riflaydi. U muhim kompetentliklar tuzilmasidagi to'rtta kichik guruhni alohida ko'rastib o'tadi. Bular: kasbiy yo'nalganlik; kasbiy kompetentlik; kasbiy ahamiyatga ega sifatlar; kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar.

Pedagogik kompetentlik- o'qituvchining shaxsiy imkoniyatlari, uning mahorati (bilim va tajriba), ma'lum bir doiradagi o'zining bilim va ko'nikmalariga tayanib muammolarining yechishi.

R.V.Ovcharovanning fikricha, pedagogik kompetentlik bu shaxsning pedagogik faoliyatga tayyorgarligida ko'rinadigan psixologik sifatlarini yig'indisidir (xarakter, temperament v.x.k)

Ilmiy – pedagogik adabiyotlarda “kasbiy kompetentlik” atamasi bilan bir qatorda, ma'no jihatidan unga yaqin bo'lgan “professionalizm”, “kasbiy mahorat”, “malaka”, o'z kasbining ustasi” kabi tushunchalar qo'llanilib kelinadi.

Hozirgi kunda “professionalizm” atamasi o'rniga ko'pincha “kompetensiya” tushunchasi qo'llaniladi. Birinchi tushuncha faqat ma'lum bir kasb

mahoratini, malakasini aks ettiradi. Ikkinchi “kompetensiya” tushunchasi esa malakalar zaxirasi, bazasi degan ma'noni anglatadi.

Kasbiy kompetentlikni izohlari turlicha yuzaga keldi:

-ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish qobiliyati;

-“malaka”, “mahorat” kabi inson ko'nikmalari (A.K.Makarova);

-kasbiy ma'lumotlilik darajasi;

-insonning tajribasi va individuallik qobiliyati,uning o'z bilimi va malakasini oshirib borishga intilishi, uning ishga ijodiy yondashuvi va o'z ishiga mas'uliyati(B.S.Gershunskiy)

-kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish(O.A Abduqudusov, X.F.Rashidov);

-bilim, mahorat,o'ziga xoslik va shaxsning o'quv tarbiya jarayonlarini tashkil etishdagi qobiliyat (V.A.Sitarov) [13]

-shaxsning tajribasi, ma'lumotining ijtimoiy yo'naltirilganligi, insonning ma'lum bir maqsad yo'lidagi amaliy faoliyati natijalari; kasbiy bilimlarini hayotda samarali qo'llashi kabi shaxsning o'ziga xos sifatleri va kompetentligi (L.N.Ponamarov) [9]

Kasbiy kompetentlikka ko'p qirrali funksiyalarni bajarish,bir kasbiy faoliyat doirasida qator ijtimoiy bilimlarga tayanish, faoliyat ko'rsatish turlarini kengaytirish orqali erishadi.

**Natijalar.** Malaka talablarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga pedagogik faoliyat bo'yicha quyidagi talablar qo'yilgan:

-dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va tabiiy -ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

-tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yahlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

-axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bilishi o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

-tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- bitta xorijiy tilni erkin so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'limning samarali shakl va

usullarini izlab topishi,o'quv uslubiy tayyorgarlik faoliyatini kuchaytirish,o'zining kasbiy kompetentligini shakllantirishda maxsus fanlardan mashg'ulotlarni tashkil etishning shakl, metod, vositalarini to'g'ri tanlay olishi lozim.

Bizning fikrimizcha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zini mutaxassisligi bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bilan birga pedagog uchun muhim bo'lgan kasbiy sifatlarga ega bo'lishi (o'z-o'zini rivojlantirish,yangiliklarga intilishi) yoki bir so'z bilan aytganda kasbiy kompetentlikga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) tashkiliy-boshqaruvchanlilik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);

2) o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integratsiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);

3) texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);

4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash). [8]

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nikmalari orqali, ko'nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo'naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

**Xulosa.** Bugungi kunda «Ta'lim to'g'risidagi qonun»[1] talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash muhim muammo sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Shunday ekan, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qonunda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida o'qituvchi kasbiy-metodik kompetentligini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda psixologiyaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaganday. Shunga ko'ra yosh avlod ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, yangicha o'qitish texnologiyalarini ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish hamda psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchidan metodik kompetentlik, ayniqsa, turli xil sharoitlarda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi psixologiyasini to'g'ri baholay olish bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik kompetentlikning yuqori darajada bo'lishi talab qilinadi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida // Uzluksiz ta'lim. -2005. -.№1. - b.
4. Baydenko V.I. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимой этап проектирования ГОСВПО новой поколения. - М. - 2006. - 72 s.
5. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
6. Gulomov A., Ne'matov O'. Ona tili ta'lim mazmuni.-T.: O'qituvchi, 1995.-b. 38.
7. Hayitov.A.I. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi. Uslubiy qo'llanma. T.: —Zuhra baraka biznes||, 2021. – 129 b.
8. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya, / N.V.Kuzmina. - M.: Vysshaya shkola, 1990.-119 s.

9. Larionova G. A. Kompetensii v professionalnoy podgotovke studentov vuzov: znaniya, deystviya, deyatelnost, samoopredelenie: monografiya. - Chelyabinsk. - 2004. - 171 s.
10. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /- T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. - 81-b
11. R.Mavlonova, N.Vohidova va b. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiyalar||, 2013. -314 b.
12. Ro'zimuhammad B. Buyuk shaxslar silsilasi // Ma'rifat. - 2002. -№26. -b.
13. Smirnova Ye.E. Formirovanie modeli spetsialista vysshim obrazovaniem. -Tomsk, 1984. -132 s.
14. Tolipov F.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006.
15. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - T.: -Iqtisod-moliya||, 2011.-425 b.
16. Xovov O.V. Kompetentnost professionalnaya // Ensiklopediya professionalnogo obrazovaniya: V 3-x t. - M.:APO. - 1998.-T.1. -S.454- 455.
17. Ziyomuhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya.-T.: [abu ali ibn sino](#), 2001.-b.2

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).